

## EHTIYOJMAND FUQAROLAR DOIMIY E'TIBORDA



### EHTIYOJMAND FUQAROLAR DOIMIY E'TIBORDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 25 maydagi "Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini manzilli qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-258-sonli qaroriga asosan tumandagi bir martalik moddiy yordam ko'rsatilmagan "Temir daftar"ga kirgan (2022 yilning 1-yanvaridan 1-iyun kunigacha) hamda 59 ta oilaning 249 nafar a'zolariga 20 kilogrammdan (jami 5 tonna) un mahsuloti bepul tarqatib berildi.

Bundan tashqari qarorning 5 bandi, "b"-qismiga asosan bir martalik moddiy yordam ko'rsatilmagan ijtimoiy himoyaga muhtoj ehtiyojmand oilalarning a'zolariga 20 kilogrammdan un mahsuloti tarqatib berilishi belgilangan bo'lib, mazkur qarorga asosan tumandagi barcha mahallalaridan sektor rahbarlari, mahalla fuqarolar yig'inlari raisi va hokim yordamchilari tomonidan ehtiyojmand oilalarning ro'yxati shakllantirildi.

So'x tumani bo'yicha jami 501 ta oilalarda istiqomat qiluvchi jami

2 120 nafar fuqarolar, shu jumladan sektorlar kesimida:

1-sektor hududidagi	6ta MFYda	133 ta oilada	577 nafar;
2-sektor hududidagi	9ta MFYda	156 ta oilada	642 nafar;
3-sektor hududidagi	5ta MFYda	111 ta oilada	430 nafar;
4-sektor hududidagi	7ta MFYda	101 ta oilada	471 nafar

yashaydigan fuqarolarning ro'yxati shakllantirildi.

---

Shakllantirilgan ro'yxatdagi oilalarga jami 42,4 tonna un mahsuloti tarqatib berilmoqda. Un<sup>1/2</sup> mahsuloti xarid qilish uchun "Saxovat va ko'mak" jamg'armasiga 212,0 mln.so'm mablag' ajratib berildi.

Shuningdek, tumandagi 1 400 dan ortiq oilalarga 7 tonna miqdorida shakar arzon narxda - 10 ming

---

so'mdan sotilishi ta'minlandi.

**So'x tumani hokimligi Axborot xizmati**

2022-06-13 11:12:56